



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

Dilrabo Hayitova

Samarqand viloyati Payariq tumani 25-umumiy o‘rtta ta’lim maktabi o‘qituvchisi

KUNDALIK RAQAMLI TA'LIM PLATFORMASI – TA'LIMNI MODERNIZATSIYA QILISHNING ENG SAMARALI VOSITASI

Annotatsiya. Kundalikning asosiy maqsadlaridan biri – byurokratiya darajasini pasaytirish va ta’limni yanada sifatli, arzon va ijodiy qilishdan iborat. Buning natijasida bolalar materialni yaxshiroq o‘rganadilar, yozilgan uy vazifalarini tekshirish, ota-onalarning o‘qituvchilarga qo‘ng‘iroqlari va hakozo kabi «maishiy» muammolar hajmi kamayadi, o‘qituvchiga ham mazkur platforma «yordamchi» bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: raqamli ta’lim platforma, kompleks yondashuv, kompleks yondashuv.

Bugungi kunda ko‘plab sohalarda axborot texnologiyalari muvaffaqiyatlari qo‘llanmoqda. Bu O‘zbekiston ta’lim tizimini ham chetlab o‘tmadi. Mamlakatimiz ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish maqsadida «O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini

rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni hamda «Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarorining qabul qilinishi ta’limni tubdan isloh qildi. O‘qituvchilarning ishini engillashtirish, ularni qog‘ozbozliq ishlaridan xalos qilish va o‘quv jarayoni sifatini yanada yaxshilash uchun **Kundalik raqamli ta’lim platformasi** joriy etilmoqda.

Kundalikning asosiy maqsadlaridan biri – byurokratiya darajasini pasaytirish va ta’limni yanada sifatli, arzon va ijodiy qilishdan iborat. Buning natijasida bolalar materialni yaxshiroq o‘rganadilar, yozilgan uy vazifalarini tekshirish, ota-onalarning o‘qituvchilarga qo‘ng‘iroqlari va hakozo kabi «maishiy» muammolar hajmi kamayadi, o‘qituvchiga ham mazkur platforma «yordamchi» bo‘ladi. Bu nafaqat elektron kundalik va jurnal, balki o‘quv jarayonining barcha ishtiokchilari: o‘quvchilar, o‘qituvchilar, ota-onalar, maktab rahbarlari va nazoratchi idoralari uchun yaratilgan raqamli ta’lim platformasidir. U onlayn rejimda darslar jadvalini tuzish, har bir dars uchun rejalar tuzish, davomat va o‘zlashtirish hisob-kitobini yuritish, avtomatik ravishda hisobotlarni shakllantirishga imkon beradi. O‘quvchi va ota-onalar Kundalikda baholar va uy vazifalarini ko‘rishlari, xavfsiz tarmoqda muloqot qilishlari va qo‘srimcha ta’lim resurslaridan foydalanishlari mumkin. Platformadan foydalanish juda oson, tug‘iladigan savollarga esa qo‘llab-quvvatlash xizmati mutaxassislari har doim javob berishga tayyor. Kundalikning boshqa platformalardan asosiy farqi – kompleks yondashuvda bo‘lib, mamlakatdagi butun ta’lim sohasini modernizatsiya qilish: pedagoglarning kompyuter savodxonligini o‘rgatish, maktablarning texnik jihozlash, zarur bo‘lgan joylarda va hajmlarda infratuzilmani yaxshilash, kompyuterlar bilan ta’minlash hamda internet tarmoqlariga ulash.

Ta’limni raqamlashtirish o‘qituvchining hayotini osonlashtiradi va tinchlashtiradi. «Qog‘ozli» jarayonlarni avtomatlashirish juda ko‘p vaqt ni tejaydi. Ya’ni tizim maktabning kundalik hayotini sezilarli darajada osonlashtiradi. Bolalardagi barcha yutuqlar va bilimidagi bo‘shliqlar qayd etib boriladi. Ma’lumotlarning ochiqligi va ishonchliligi ota-onalarga bolani yo‘naltirishga, kerakli mavzular va fanlar bo‘yicha o‘z vaqtida shug‘ullanishga yordam beradi.

Kundalik.com tizimi foydalanuvchilarining shaxsiy ma'lumotlarini saqlanadigan «Kundalik» MCHJ serverlari O'zbekistondagi eng yirik aloqa operatori – «O'zbektelekom» AJning ma'lumotlar markazida joylashgan. SHaxsiy ma'lumotlarni saqlash va jamoat tarmoqlari orqali uzatish O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 iyuldagи «SHaxsiy ma'lumotlar to'g'risida»gi 547-sonli Qonun talablariga to'liq javob beradi.

Bugungi kunda Toshkentning 290 maktabi Kundalik bilan ish olib bormoqda, shuningdek, Toshkent, Samarqand, Buxoro viloyatlari maktablari tizimga ulangan. Kundalikda hamma narsa: vazifalar, baholar, dars jadvali qayd etilgan. SHuni ham ta'kidlash kerakki, platforma tufayli o'quvchilarning davomati yaxshilandi va arzirli sababsiz darsdan qolishlar soni ozaydi. O'quvchilar orasida bolalarni yangi maqsadlarga intilishga undovchi bilim olishga, ijodiy topshiriqlar va musobaqalarga qiziqishning ortishi ham muhim ahamiyatga ega. Kundalik ta'lim to'g'risidagi barcha ma'lumotlarni birlashtiradi va undan ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari foydalanishlari uchun imkon yaratadi.

Kundalik raqamli ta'lim platformasi O'zbekiston kelajagining rivojlanishi, yangi imkoniyatlarni ochishi bilan belgilanadi. Bu ta'limni modernizatsiya qilishning oddiy va eng samarali vositalaridan biridir.